BOYSUN VOHASIDAGI QORONG‘UDARA TOPILMAJOYI TOSH INDUSTRIYASINING TEXNIK-TIPOLOGIK TASNIFI

© 2026. Rajabov Alisher
Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti
0000-0002-9225-1151

Kalit so‘zlar: Qorong‘udara, Teshiktosh, Boysuntog‘, Zavtaloshdara, g‘or, kesgich, pichoq, so‘nggi paleolit, neandertal, o‘zaktosh, mikrobifas, uchirindi, ohaktosh.

Ushbu maqola Janubiy O‘zbekistondagi Boysuntog‘ mintaqasida yangi topilgan Qorong‘udara g‘orini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu g‘ordan topilgan tosh buyumlarni o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish Janubiy O‘zbekistonning ibtidoiy tarixini boyitmoqda. Qorong‘udaradan topilgan tosh industriyasining xarakterli xususiyati shundaki, ular nafaqat ikkita: o‘rta va so‘nggi paleolit davrlariga oidligi, balki birinchi davrga oid tosh buyumlarning ikkinchi kompleks davrida ham intensiv qayta ishlov berilganligi hisoblanadi. Yodgorlikning tosh industriyasi Boysuntog‘ning paleolitga oid boshqa komplekslaridan tosh qurollarga bifasial ishlov berish texnologiyalarining keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Qorong‘udarada qo‘lga kiritilgan qalin yo‘nilg‘ilar yoki tosh plitkalarning qirralari dastavval bifasial yo‘nishlar yordamida yupqalashtirilgan va so‘ngra retushlangan. Bu yerdan bir dona yuraksimon bifasning topilishi ham bejizga emas. Qorong‘udaraliklar o‘rta paleolit davridayoq toshlarga bifasial ishlov berishning texnologik malakasiga ega bo‘lganlar. Bu holat Qorong‘udara aholisining ushbu hududga migratsiya qilgan alohida bir madaniy jamoalar birligi ekanligidan dalolat beradi. Janubiy O‘zbekiston hududlaridan qadimgi tosh davriga oid yana bir necha yangi topilmajoylar aniqlandi va bu Boysuntog‘ning hududlari paleolit davri odamlari tomonidan anchayin zich o‘zlashtirilganligidan dalolat beradi.

ТЕХНИКО-ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ КАМЕННОЙ ИНДУСТРИИ МЕСТОНАХОЖДЕНИЯ КАРАНГУДАРА В БОЙСУНСКОЙ ДОЛИНЕ

© 2026. Ражабов Алишер
Самаркандский институт археологии имени Я. Гулямова

Ключевые слова: Карангудара, Тешикташ, Байсунские горы, ущелье Завталаш, пещера, резец, нож, поздний палеолит, неандерталь, нуклеус, микробифас, отщеп, известняк.

Данная статья посвящена изучению новообнаруженного местонахождения Карангудара в Бойсунской горной местности. Обнаружение и введение в научный оборот каменных изделий, найденных из этого местонахождения обогащает первобытную историю Южного Узбекистана. Характерной особенностью индустрии Карангудары является не только разновременность, относящаяся к двум эпохам: среднего и позднего палеолита, но и интенсивное переиспользование артефактов раннего комплекса в более поздний период. Каменная индустрия памятника отличается от других синхронных комплексов с широким распространением технологий бифасиальной обработки каменных орудий. Края полученных, сколов толстых пропорций в Карангударе сначала утончались при помощи бифасиальных снятий и затем ретушировались. Не зря здесь обнаружен один бифас сердцевидной формы. Карангударьинцы овладели навыками обработки бифасиальных технологий еще с эпохи среднего палеолита. Это обстоятельство свидетельствует о существовании отдельного культурного единства в регионе, отличающейся от других соседствующих синхронных обществ. Кроме того, на территории Южного Узбекистана выявлены ряд других местонахождений, которые свидетельствуют о более густонаселенности территории Байсунских гор в палеолитическую эпоху.

Kirish. Nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda tosh davrini tizimli o‘rganish ishlari 1938-yilda Boysuntog‘dagi Zavtalosh daradan topilgan dunyoga mashhur Teshiktosh g‘orining ochilishi va neandertal bola qabrining topilishi bilan boshlangan (Окладников, 1949: 7-85). Surxondaryo viloyati hududida O‘zbekistonning bir qator tosh davriga oid muhim yodgorliklari topib o‘rganilgan. Biroq ularni ro‘yxatga olish, zamonaviy texnologiyalar yordamida xaritalashtirish ishlari amalga oshirilmagan. Surxondaryo viloyatida quyidagi yodgorliklar turli davrlarda turlicha o‘rganilgan. Zavtaloshdarada paleolit davriga oid Kattaqo‘rg‘on va Teshiktosh 1-3 g‘orlari ham joylashgan. Unga qo‘shni darada esa, Amir-Temir g‘ori ochib o‘rganilgan (Окладников, 1940: 67-69) va bir necha kilometr shimoli-g‘arbda mezolit davriga oid Machay g‘ori joylashgan (Исламов, 1975:136).

Surxondaryo viloyati Boysun tumani Machay qishlog‘i va uning atrofidan tosh davriga oid bir nechta g‘or-makonlari o‘rganilgan va so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bir qator yangi makonlar topilib hozirgi kunga qadar o‘rganilmoqda.


Boysun vohasi hududlarida O‘zbekiston-Yaponiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi tomonidan 2014-2016-yillar davomida olib borilgan arxeologik dala-qidiruv ishlari natijasida bir nechta g‘or makonlari va topilmajoylar aniqlanib, ularning joylashuvi ko‘rsatilgan sun’iy yo‘ldosh tasviri xaritasi ishlab chiqildi (Nishiaki, Aripdjanov, Sayfullayev, Rajabov, Nakata, Arai, Akashi, 2018: 31-41). Hududda tosh davriga oid Teshiktosh 1-3, Amir Temur 1-2, Qorong‘udara; Machay 1-2, Qaynar-kamar, Sigirtosh, Kichik-kamar, Xojaedak-kamar, Gajdara 1-4, Dunyo-kamar, Boltaboy-kamar (Окладников, 1940: 67-69; Исламов, 1975: 136) kabi bir qator yodgorliklar aniqlangan (1-rasm).

2023-yilning iyul-avgust oylarida Samarqand arxeologiya institutining Boysun guruhi a’zolari tomonidan Surxondaryo viloyatining Boysun tumani Machay qishlog‘ida, ya’ni Machaydaryoning chap sohilida joylashgan Qorong‘udara yodgorligida (38°17'07.5"N 67°02'05.4"E) arxeologik qazishma tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu dara Quyi Machay qishlog‘idan 7-8 km g‘arbda, Machaydaryoning g‘arbiy sohilida joylashgan. Ushbu tor dara janubdan g‘arbga qarab bir necha kilometr masofaga cho‘zilgan va ikki yon tomoni baland qoyalar bilan o‘ralgan (2-rasm). Darani quyosh nurlari faqat kunning ma’lum bir vaqtlarida yoritadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u Qorong‘udara nomini olgan (3-rasm). Darada geologlar tomonidan hosil qilingan harsang ayvonlardan tashqari, bir qator tabiiy g‘orlar ham mavjud. Biroq ushbu g‘orlarda olib borilgan tadqiqotlar natija bermadi. Negaki, bu g‘orlarning ichkari qismidagi tuproq qatlamlari ularning tepasidan sizib tushgan yomg‘ir va qor suvlari yordamida yuvib ketilgan. Ammo daraning atroflarida o‘tkazilgan qidiruv ishlari natijasida bu yerdan paleolit davri odamlari tomonidan ishlov berilgan 56 ta tosh buyum yig‘ib olindi. Qorong‘udaraning ikkala tomoni ham tik qoyalar bilan o‘ralgan va bu qadimgi tosh davri odamlarining ov qilishlari uchun juda qulay sharoitlarni hosil qilgan. Uning yon bag‘irlarida joylashgan ungurlar esa qadimgi odamlar uchun vaqtinchalik boshpana va o‘ljaga dastlabki ishlov berish uchun qulay qo‘nalg‘alar vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin.

Usullar. Qorong‘udara tosh ashyolarini tadqiq qilishda M. Breziyon tomonidan ishlab chiqilgan «texnik-tipologik», J. Peligrinning «Toshlarni chaqmoqlashning texnologik» usullari hamda V.T. Petrin va A.P. Derevyankolarning “mexanik eroziya yoki fizik ta’sirlar” kabi qator zamonaviy usullaridan foydalanildi.

Materiallar. Qorong‘udaradan yig‘ilgan tosh buyumlar orasida nukleuslar, o‘zaksimon bo‘laklar, qirg‘ichlar, kesgichlar, bir dona bifas va iskanasimon qurollar hamda uchirindilar mavjud (4-rasm).

Bir zarb maydonli nukleuslar - 7 ta. Kolleksiyaning bir zarb maydonli nukleuslarining barchasi qora va kulrangli kremniylashgan ohaktoshlardan ishlangan. Ulardan 3 tasi keng va tekislangan zarb maydondan tanovorlarning uzun tomonlaridan chaqmoqlangan. Faqatgina



1-rasm. Boysun vohasida qayd etilgan g‘orlarning joylashuvi ko‘rsatilgan sun’iy yo‘ldosh tasviri
Рис. 1. Спутниковое изображение с указанием расположения пещер, зафиксированных в Байсунской долине
Fig. 1. Satellite image showing the location of caves recorded in the Boysun valley



2-rasm. Qorong‘udaraga kirishdagi tor daraning ko‘rinishi
Рис. 2. Вид узкого ущелья при входе в Карангудару
Fig. 2. View of the narrow gorge at the entrance to Qorong‘udara



3-rasm. Qorong‘udara g‘orining umumiy ko‘rinishi
Рис. 3. Общий вид пещеры Карангудара
Fig. 3. General view of the Qorong‘udara cave

1 ta holatda chaqmoqlash keng va tekis zarb maydondan tanovarning ensiz tarafidan amalga oshirilgan. Nukleuslardan 2 tasi haddan tashqari ishlov berilgan va kichik hajmlidir. O‘zaklarning saqlanish darajasiga ko‘ra, 2 ta xronologik komplekslarga ajratilishi mumkin. Birinchi kompleks nukleuslari ish yuzalaridagi negativlarini qoplagan patinizatsiyasi qalinroq (3 ta bir zarb maydonli nukleus) hisoblanadi. Qolgan 3 ta nukleus ish yuzalaridagi negativlarini qoplagan patinizatsiyasi nisbatan yorqinroq ko‘rinishga ega.

Birinchi kompleks bir zarb maydonli nukleuslaridan biri tanovarning uzun o‘qi bo‘ylab chaqmoqlangan bo‘lib, hajmi 28×38×19 mm. O‘zakni chaqmoqlash tekislangan, keng va orqa tarafiga qiyalashgan zarb maydondan, bir yuzadan uzunasiga subparallel ravishda amalga oshirilgan. Biroq ushbu yo‘nilg‘i negativlari nukleus ish yuzasining boshlang‘ich qismida-yoq singan va ish yuzaning markazida noqulay bo‘rtik hosil qilgan. Ushbu nukleus ikkinchi bosqichda ham ishlatilgan va nukleusning o‘ng yon tomonidan qadimgi tayyorlangan zarb maydondan 1 ta yo‘nish amalga oshirilgan. Ammo ushbu yo‘nilg‘i ham nukleusning boshlang‘ich qismida sinib qolgan. So‘ngra ikkinchi bosqichda nukleusning chap laterali proksimalida, o‘zakning orqa tarafidan qadimgi ish yuzasiga yo‘naltirilgan perpendikulyar yo‘nishlar amalga oshirilgan. So‘ngra nukleus tashlab yuborilgan. Nukleusning orqa tarafi plitkaning tabiiy singan yuzasini saqlab qolgan (5-rasm, 1). Birinchi kompleksga kiritilgan bir zarb maydonli va bir ish yuzali nukleuslardan birining hajmi 35×80×25 mm bo‘lib, uni chaqmoqlash tanovarning ensiz tarafidan amalga oshirilgan. Nukleuslardan kalta proporsiyali o‘rta va kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. So‘ngra nukleusning proksimali ish yuzaga hamda zarb maydonga yo‘naltirilgan kichik yo‘nishlar va ayrim mayda retushlar




4-rasm. Qorong‘udara g‘orining tosh buyumlari
Рис. 4. Каменные изделия из пещеры Карангудара
Fig. 4. Lithic artifacts from Qorong‘udara cave

yordamida tishsimon qirraga aylantirilgan. Ish qirrasining shakli zigzagsimon. Nukleus o‘rta darajada deflyatsiyaga uchragan (5-rasm, 2). Birinchi toifaga kiritilgan bir zarb maydonli nukleuslarning so‘nggisi haddan tashqari ishlov berilgan va hajmi 89×65×20 mm. Nukleusni chaqmoqlash bitta tekislangan va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan zarb maydondan amalga oshirilgan. Chaqmoqlashning so‘nggi bosqichida o‘zakdan uzunasiga subparallel ravishda kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. O‘zakning orqa tarafi tabiiy singan hamda ohakli qoplama bilan qoplangan izlarini saqlab qolgan (5-rasm, 3).

Ikkinchi kompleksga kiritilgan bir zarb maydonli nukleuslardan birining zarb maydoni tekislangan va keng ko‘rinishga ega. Ushbu maydondan uzunasiga subparallel ravishda yirik va mayda hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. Biroq bir nechta yo‘nilg‘i negativlari nukleusning boshlang‘ich qismida sinib qolgan. Nukleusning orqa tarafida birinchi bosqichda amalga oshirilgan va uzunasiga subparallel tarzdagi yirik uchirindilarning negativlarini ham saqlanib qolgan. O‘zakning zarb maydoniga qarama-qarshi joylashgan pastki uchi va o‘ng laterali ohakli qoplama bilan qoplangan. Uning hajmi 57×70×29 mm. Ikkinchi kompleks bir zarb maydonli bir yuzadan chaqmoqlangan nukleuslardan biri qora rangli kremniylashgan ohaktosh plitkasidan ishlangan. O‘zakning zarb maydoni tekislangan va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan. Nukleusdan uzunasiga subparallel tarzda chaqmoqlash amalga oshirilgan. So‘ngra ushbu yuzada asosiy zarb maydonga qarama-qarshi tarzda ayrim yo‘nishlar amalga oshirilgan. Biroq ushbu yo‘nilg‘i negativlari o‘zakning boshlang‘ich qismida sinib qolgan. Nukleusning orqa tarafi ikki qarama-qarshi zarb maydonli unifasial nukleusning tayyorlov izlarini saqlab qolgan (5-rasm, 4). Kolleksiyaning haddan tashqari ishlov berilgan bir yuzali bir zarb maydonli nukleuslaridan birining hajmi 62×47×25 mm. Nukleusning zarb maydoni keng va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan. Ushbu bosqichda nukleusdan uzunasiga subparallel ravishda kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan (5-rasm, 5).

Gardishsimon nukleus – 1 ta. Ushbu o‘zaktosh bir tomonlama bo‘rtib chiqqan va bir yuzasi tekis singan kremniylashgan ohaktosh plitkadan shakllantirilgan bo‘lib, uning hajmi 102×86×35 mm dan iborat. Nukleus periferiyasining 3/4 qismida bir yuzadan markazga intiluvchi xarakterdagi radial chaqmoqlash amalga oshirilgan. Nukleusning orqa tarafi ayrim zarb maydonlar tayyorlashdan hosil bo‘lgan yo‘nilg‘i negativlari va asosan, singan tekis yuzasini saqlab qolgan. Qirralarining shakli zigzagsimon va ko‘ndalang kesmada bir taraflama bo‘rtib chiqgan. Biroq nukleus ish yuzasining o‘ng lateralidagi qadimgi yo‘nilg‘i negativi ustida amalga oshirilgan keyingi bosqichga oid ayrim yo‘nilg‘i izlari ham saqlanib qolgan. Nukleusdan yirik hajmli kalta proporsiyali uchirindilar chaqmoqlab olingan (5-rasm, 6).

Perpendikulyar nukleuslar – 4 ta. Ularning eng yirigining hajmi 78×105×39 mm. Uning asosiy zarb maydoni tekislangan va orqa tarafiga biroz qiyalashgan. Ushbu zarb maydondan uzunasiga subparallel ravishda yirik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. Biroq ushbu yo‘nilg‘i negativlari nukleusning pastki uchiga yetib bormasdan singan. O‘zakning orqa tarafi to‘liq ohak qoplama bilan qoplangan. Ushbu qoplamaning bir chetidan nukleus o‘ng lateralining distalida ish yuzaga perpendikulyar ravishda ayrim yo‘nishlar amalga oshirilgan. Buning uchun o‘zakning orqa tarafida kichik hajmli zarb maydon hozirlangan. Ushbu maydondan ikkinchi bosqichda ham bitta kichik hajmli uchirindi yo‘nib olingan. Nukleus ish yuzasining orqa tarafida maxsus tekislangan zarb maydondan bitta yo‘nish amalga oshirilgan. Natijada bir dona kichik hajmli uchirindi chaqmoqlab olingan. O‘zakning hajmi 80×40×25 mm (6-rasm, 1). Nukleusning ish yuzasi biroz deflyatsiyaga uchragan. Navbatdagi bir yuzadan perpendikulyar chaqmoqlangan nukleusning hajmi 57×73×42 mm. Uni chaqmoqlash tekislangan va orqa tarafiga qiyalashgan zarb maydondan amalga oshirilgan. Nukleusdan kalta proporsiyali o‘rta hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. So‘ngra nukleusning orqa



5-rasm. Qorong‘udara g‘oridan topilgan tosh buyumlar. 1–5–bir zarb maydonli nukleuslar; 6-gardishsimon nukleus
Рис. 5. Каменные изделия из пещеры Карангудара. 1–5–одноплощадочные нуклеусы; 6-дисковидный нуклеус
Fig. 5. Stone artifacts from Qorong‘udara cave. 1–5–single-platform cores; 6-discoid core

tarafidan zarb maydon tayyorlanib, ish yuzasiga perpendikulyar ravishda 1 ta yo‘nish amalga oshirilgan. O‘zakning orqa tarafida tekislangan zarb maydon hamda avvalgi bosqichlardagi yo‘nilg‘i negativlarining izlari saqlanib qolgan (6-rasm, 2). Ikkinchi bosqichning so‘nggi perpendikulyar o‘zagi haddan tashqari ishlov berilgan bo‘lib, hajmi 89×58×44 mm. Uning zarb maydoni ikki qirralidir. Ushbu maydondan kichik hajmli uchirindi chaqmoqlab olingan. So‘ngra o‘zakning orqa tomonidagi yo‘nilg‘i negativi zarb maydon vazifasini bajargan va ish yuzaga perpendikulyar bitta kichik hajmli yo‘nish amalga oshirilgan. O‘zakning orqa tarafi zarb maydonlar hosil qilishdan paydo bo‘lgan yo‘nilg‘i negativlari va qisman ohak qoplama yuzasini saqlab qolgan (6-rasm, 3).


Ortogonal nukleus–2 ta. Kolleksiyaning ortogonal nukleuslaridan biri tanovarning ensiz tomonidan chaqmoqlangan. Zarb maydoni tekislangan va orqa tarafiga o‘ta qiyalashtirilgan. O‘zakdan kalta proporsiyali uchirindilar chaqmoqlab olingan. So‘ngra ish yuzadagi yo‘nilg‘i negativlaridan birining pastki uchi qo‘shimcha tekislanib, nukleusning orqa tarafidan ortogonal yo‘nishlar uchun zarb maydon hosil qilingan va ushbu maydondan ham uzunasiga subparallel ravishda kalta proporsiyali kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. Nukleusning orqa tarafi uni ishlov berishdan avvalgi bosqichlardan qolgan yo‘nilg‘i negativlarini va ortogonal yo‘nishlarning izlarini saqlab qolgan, uning hajmi 55×45×36 mm (6-rasm, 4). Ikkinchi kompleksning navbatdagi ortogonal nukleusining hajmi 42×72×35 mm. Nukleus birinchi bosqichda bir zarb maydonli nukleus bo‘lgan va undan o‘rta hamda kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. So‘ngra ikkinchi bosqichda ushbu yo‘nilg‘i negativlarining proksimal qismi zarb maydon vazifasini o‘tagan va undan uzunasiga subparallel ravishda o‘rta hajmli uzunchoq shaklli uchirindilar chaqmoqlab olingan (6-rasm, 5).

Ko‘p zarb maydonli haddan tashqari ishlov berilgan nukleus -1 ta. Uning hajmi 100×76×71 mm. O‘zakning zarb maydoni keng va qisman tekislangan va undan ishlanishning ushbu bosqichida butun periferiyasi bo‘ylab kichik hajmli uchirindilar tartibsiz chaqmoqlab olingan. Chaqmoqlash uchun zarb maydon vazifasini avvalgi bosqichdagi yo‘nilg‘i negativi o‘tagan. Nukleusning ish yuzalarida ayrim birinchi bosqichdan qolgan yo‘nilg‘i negativlari qoldiqlari ham saqlanib qolgan (6-rasm, 6).

Konussimon nukleus–1 ta. Ikkinchi kompleks nukleuslari orasida atipik ko‘rinishdagi konussimon nukleus ham mavjud. Uning zarb maydoni vazifasini uchirindi-nukleusning tekis ventral yuzasi o‘tagan. Nukleus haddan tashqari ishlov berilgan va uning periferiyasining 3/4 qismida kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlash amalga oshirilgan bo‘lib, hajmi 31×22×24 mm (7-rasm, 1)

Yonlama nukleuslar–4 ta. Ikkinchi kompleksning nukleuslari orasida 2 ta yonlama (torsoviy) tipdagi o‘zaklar uchraydi. Ulardan biri kremniylashgan ohaktoshning ohakli qoplama bilan qoplangan bo‘lagidan ishlangan bo‘lib, hajmi 45×74×30 mm. Zarb maydoni bir nechta ko‘ndalang yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan va orqa tarafiga biroz qiyalashtirilgan. Ushbu maydondan tanovarning ensiz yon tomonidan yonlama yo‘nishlar yordamida uzunchoq plastinasimon yo‘nilg‘ilar chaqmoqlab olingan (7-rasm, 2). To‘plamning navbatdagi yonlama o‘zagi kuchli darajada kremniylashgan ohaktoshning bo‘lagidan ishlangan. Zarb maydoni tekislangan va orqa tarafiga biroz qiyalashgan. Tanovarning ensiz yon tomonidan kichik hajmli yo‘nilg‘ilar chaqmoqlab olingan bo‘lib, uning hajmi 40×30×10 mm (7-rasm, 3).

Bir yuzadan chaqmoqlangan ikki qarama-qarshi zarb maydonli nukleus–1 ta. Nukleusning zarb maydonlaridan biri tekislangan, keng va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan. Ushbu zarb maydondan uzunasiga subparallel ravishda kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan. Biroq ushbu yo‘nilg‘i negativlari o‘zak ish yuzasining markaziga kelib singan. So‘ngra nukleusning pastki uchi orqa tarafidagi tabiiy tekis yuzadan zarb maydon sifatida foydalanilib, ish yuzasidagi negativlarga qarama-qarshi yo‘nalishda, uzunasiga subparallel ravishda o‘rta hajmli uchirindilar chaqmoqlab olingan.



6-rasm. Qorong‘udara g‘oridan topilgan tosh buyumlar. 1–3–perpendikulyar nukleuslar; 4-ortogonal nukleus; 5-bir zarb maydonli nukleus; 6-ko‘p zarb maydonli nukleus

Рис. 6. Каменные изделия из пещеры Карангудара. 1–3–перпендикулярные нуклеусы; 4-ортогональный нуклеус; 5-одноплощадочный нуклеус; 6-многоплощадочный нуклеус

Fig. 6. Stone artifacts from Qorong‘udara cave. 1–3–perpendicular cores; 4-orthogonal core; 5-single-platform core; 6 multi-platform core

O‘zakning hajmi 73×47×34 mm (7-rasm, 4).

Prizmasimon nukleus–1 ta. Ikkinchi kompleksda bir dona haddan tashqari ishlov berilgan va plastinalar chaqmoqlab olishga mo‘ljallangan uzunchoq shaklli prizmasimon nukleus mavjud bo‘lib, hajmi 30×48×38 mm. O‘zakning zarb maydoni tekislangan va orqa tarafiga biroz qiyalashgan. Ushbu nukleusdan uzunasiga subparallel ravishda noto‘g‘ri dorsalli plastinalar chaqmoqlab olingan (7-rasm, 5).

Nukleussimon bo‘laklar. To‘plamda turli ishlanish bosqichlarida tashlab yuborilgan va biror bir shakl bermaydigan, aksariyat hollarda ayrim yo‘nilg‘i negativlariga ega bo‘laklar ham aniqlandi (8-rasm) (1-jadval).

O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, Qorong‘udara topilmajoyining birlamchi ishlov berilgan tosh buyumlari, ya’ni nukleuslar va yo‘nilg‘ilari 48 ta artefaktni tashkil qildi. Ular orasida yonlama, konussimon, prizmasimon, haddan tashqari ishlov berilgan va ayrim bir-ikki zarb maydonli o‘zaklar shubhasiz, so‘nggi paleolit davrini ifoda etadi. Shuningdek to‘plamning kam sonli plastinalari yengil ushatg‘ichlar yordamida chaqmoqlab olingan. Ularning zarb maydonchalari kichik, profillari qayrilgan va zarb tepaliklari diffuziv ko‘rinishlarga ega.

Qorong‘udara topilmajoyi kolleksiyasida ikkilamchi ishlov berilgan tosh qurollardan yuraksimon bifas, uzunasiga va ko‘ndalangiga ishlangan qirg‘ichlar, tosh pichoq, iskanasimon qurol, kesgichlar va retushlangan uchirindilar mavjud.


Bifas–1 ta. U kulrang-jigarrangli kuchli kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan va hajmi 100×100×50 mm. Qurol har ikkala yuzasidan ham og‘ir ushatg‘ich bilan yirik yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan. So‘ngra kichik yo‘nishlar yordamida bifasning qirralari sistemalashtirilgan. Qurolning shakli yuraksimon va chuqur patina bilan qoplangan. Uni Qorong‘udaraning o‘rta paleolit davri kompleksiga kiritish mumkin. Bunday bifaslar ilk va o‘rta paleolit davri industriyalari uchun xosdir. Nima bo‘lganda ham ushbu qurol Janubiy O‘zbekiston hududidan topilgan o‘rta paleolitga oid ilk bifas hisoblanadi (9-rasm, 1).

Qirg‘ichlar–7 ta. Kolleksiyada uzunasiga ishlangan oddiy qirg‘ichlar 4 ta. Ulardan biri kremniylashgan ohaktosh plitkadan ishlangan bo‘lib, hajmi 70×130×35 mm. Tanovarning uzun qirralaridan biri yonlama yo‘nishlar va yupqa retushlar yordamida ish qirraga aylantirilgan. Ish qirraning orqa tarafida ayrim epizodik yupqa va mayda retushlar amalga oshirilgan. Ish qirrasining shakli S-simondir (9-rasm, 2).


1-jadval.

Qorong‘udara topilmajoyi birlamchi ishlov berilgan tosh buyumlari.

№	Tipi	Soni
1	Bir zarb maydonli nukleuslar	4
2	Ikki zarb maydonli nukleus	1
3	Ko‘p zarb maydonli haddan tashqari ishlov berilgan nukleus	1
4	Yonlama nukleuslar	4
5	Perpendikulyar nukleuslar	4
6	Gardishsimon nukleus	1
7	Konussimon nukleus	1
8	Ortogonal nukleuslar	2
9	Bir yuzadan ikki qarama-qarshi zarb maydondan chaqmoqlangan nukleuslar	2
10	Prizmasimon nukleus	1
11	Nukleussimon bo‘laklar	10
12	Uchirindilar	15
13	Plastinalar	2
Jami:		**48**



7-rasm. Qorong‘udara g‘oridan topilgan tosh buyumlar: 1-konussimon nukleus; 2–3–yonlama nukleuslar; 4-ikki qarama-qarshi zarb maydonli nukleus; 5-prizmasimon nukleus
Рис. 7. Каменные изделия из пещеры Карангудара: 1 — конический нуклеус; 2–3–боковые нуклеусы; 4-нуклеус с противоположной ударной площадкой; 5-призматический нуклеус
Fig. 7. Stone artifacts from Qorong‘udara cave: 1-conical core; 2–3–lateral cores; 4-opposed-platform core; 5- prismatic core




8-rasm. Nukleussimon bo‘laklar
Рис. 8. Нуклевидные фрагменты
Fig. 8. Core-like fragments

Bunday qirg‘ichlardan yana biri ham kremniylashgan ohaktosh plitkadan ishlangan bo‘lib, uning hajmi 37×66×24 mm. Ish qirrasi alternativ yupqa yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan va shakli bo‘rtik. Saqlanish darajasiga ko‘ra, ushbu qurol birinchi kompleksga tegishlidir (9-rasm, 3). Birinchi kompleksga tegishli qirg‘ichlardan yana biri kremniylashgan ohaktosh bo‘lagidan shakllantirilgan bo‘lib, hajmi 82×45 ×25 mm. Uning uzun qirralaridan biri yupqa yarim tik retushlar yordamida ishlov berilgan. Ish qirrasining shakli bo‘rtib chiqqan (9-rasm, 4). Ikkinchi kompleksning uzunasiga ishlangan qirg‘ichlaridan biri nukleussimon bo‘lakdan shakllantirilgan bo‘lib, hajmi 43×91×20 mm. Uning uzun qirralaridan biri bir tarafdan yarim tik yo‘nishlar ikkinchi tarafdan esa epizodik mayda retushlar yordamida ishlov berilgan. Ish qirrasining shakli bo‘rtib chiqqan (9-rasm, 5). Kolleksiyada uzunasiga ishlangan qirg‘ichlarning fragmentlari ham mavjud. Ulardan biri birinchi kompleksga tegishli bo‘lib, u har ikkala tomoni singan yo‘nilg‘ining chap lateralida dorsalga yo‘nalgan ordinar retushlar yordamida shakllantirilgan. Buyum qurol yasalgandan keyin sinib qolgan. Ish qirrasining shakli to‘g‘ri chiziqsimon bo‘lib, hajmi 34×35×12 mm. (9-rasm, 6).

Ikkinchi kompleksning ko‘ndalangiga ishlangan qirg‘ichlaridan biri yirik uchirindining proksimalida bifasial yupqa yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirrasining shakli bo‘rtib chiqqan bo‘lib, 25×22×0,8 mm ni tashkil qiladi (10-rasm, 1). Ikkinchi kompleks ko‘ndalang qirg‘ichlaridan yana biri kremniylashgan ohaktosh bo‘lagining ensiz tomonlaridan birida alternativ yupqa yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirrasining shakli bo‘rtik bo‘lib, hajmi 33×30×15 mm (10-rasm, 2).

Tosh pichoq – 1 ta. Birinchi kompleksning kolleksiyasida bir dona kremniylashgan ohaktosh uchirindidan ishlangan tosh pichoq



9-rasm. Qorong‘udara g‘orining tosh qurollari. 1-bifas; 2–6–qirg‘ichlar
Рис. 9. Каменные орудия из пещеры Карангудара. 1-бифас; 2–6–скребла
Fig. 9. Stone tools from Qorong‘udara cave. 1-biface; 2–6–scrapers

aniqlandi. Uchirindining proksimali singan. Pichoqning ish qirrasi uning o‘ng lateralida dorsalga yo‘naltirilgan yupqa va mayda retushlash yordamida hosil qilingan. Pichoqning uchi uchirindining o‘ng distal burchagida bifasial yupqa yo‘nishlar va retushlar yordamida hosil qilingan. Pichoqning chap lateriali qalin va dorsalga yo‘naltirilgan yupqa retushlarga ega. Pichoq o‘ng qo‘lga mo‘ljallangan bo‘lib, uning hajmi 41×61×10 mm ni tashkil etadi (10-rasm, 3).

Iskanasimon qurol–1 ta. Ikkinchi kompleksning kolleksiyasida bir dona birinchi kompleks davrida chaqmoqlangan yirik hajmli uchirindining ko‘ndalang proksimalida shakllantirilgan iskanasimon qurol mavjud. Qurolning ish qirrasi uchirindining proksimalida ventralga yo‘naltirilgan yarim tik yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan. Uchirindining ko‘ndalang distali dorsal va ventral taraflardan birinchi kompleksga oid epizodik yupqa retushlarga ega. Ish qirraning shakli S-simon bo‘lib, uning hajmi 71×76×28 mm (10-rasm, 4).

Kesgichlar–5 ta. Kesgichlardan 2 tasi birinchi kompleksga qolgan, 3 tasi esa ikkinchi kompleksga tegishlidir. Birinchi kompleksning kesgichlaridan birining hajmi 20×32×16 mm bo‘lib, proksimali singan uchirindi bo‘lagining ko‘ndalang proksimalidan qalin chap lateraliga yo‘naltirilgan kesgich yo‘nilg‘ilari yordamida ishlov berilgan. Uchirindining dorsalidagi o‘zidan avvalgi yo‘nilg‘i negativlari perpendikulyar xarakterga ega (10-rasm, 5). Birinchi kopmleksning yana bir kesgichi kremniylashgan ohaktoshning kichik fragmentidan yon tomonlaridan birida kesgich yo‘nishlari yordamida shakllantirilgan bo‘lib, uning hajmi 20×26×10 mm (10-rasm, 6). Ikkinchi kompleksning kesgichlaridan biri kremniylashgan ohaktoshli uchirindi bo‘lagining o‘ng lateralida kesgichsimon retushlar yordamida shakllantirilgan bo‘lib, hajmi 32×42×12 mm (10-rasm, 7). Ikkinchi kompleksning navbatdagi kesgichi uchirindi fragmentining o‘ng laterali va ko‘ndalang distaliga yo‘naltirilgan kesgichsimon retushlar yordamida shakllantirilgan bo‘lib, hajmi 17×73×14 mm (10-rasm, 8). Har ikkala kompleksning kesgichlari oddiy burchak kesgichlar bo‘lib, atipik shakllarga ega (2-jadval).

Retushlangan uchirindilar–2 ta. Ikkinchi kompleksning kolleksiyasida 2 ta retushlangan uchirindi fragmentlari aniqlandi. Ulardan biri uzunchoq uchirindining distal fragmenti bo‘lib, hajmi 39×71×15 mm. Uning chap laterali ko‘ndalang distali alternativ va lokalizatsiyalashgan yupqa retushlarga ega. Fragmentning o‘ng laterali medialida dorsalga yo‘naltirilgan yupqa retushlash amalga oshirilgan (11-rasm, 1, 2). Navbatdagi retushlangan uchirindi ham distal fragment bo‘lib, dorsalga yo‘naltirilgan yupqa retushlar chap lateralida amalga oshirilgan. Buyumning o‘ng laterali esa alternativ yupqa epizodik retushlarga ega. Qirralari egik-bo‘rtik shaklga ega. Uchirindining dorsali noaniq bo‘lib, uning hajmi 25×35×0,8 mm ni tashkil etadi (11-rasm, 3,4).

To‘plamda birinchi kompleksga oid 2 ta plastinasimon va 6 ta uchirindi fragmentlari mavjud. Ularga ikkilamchi ishlov berilmagan. Zarb maydonchalari singan. Dorsallarning xarakteri uzunasiga subparalleldir. Shuningdek ikkinchi kompleksga oid 1 dona plastinaning distal fragmenti hamda kremniylashgan ohaktosh galka bo‘lagi aniqlandi (11-rasm, 5, 6) (3-jadval).

Munozoralar. Qorong‘udara topilmajoyidan tosh qurollarning 6 xil tipi aniqlandi. Ushbu materiallar ikki xil patinaga egaligi, ya’ni aksariyat o‘rta paleolitga oid artefaktlarning keyingi, so‘nggi paleolit davrida ham qayta ishlov berilganligi bilan ajralib turadi. Aytish mumkinki, darada o‘rta va so‘nggi paleolit davrlariga oid ikkita g‘or yoki shu davrlarni o‘zida aks ettirgan bitta etalon g‘or makoni hukm surgan. Bunday manzara Zavtoloshsoydagi Teshiktosh 1,2 yodgorliklari misolida ham kuzatilgan edi. Teshiktosh makonlari va Qorong‘udara topilmajoyi materiallarini qiyoslaganda ular asosan, texnik-tipologik jihatdan bir-biriga o‘xshashdir. Faqatgina Qorong‘udaraning o‘rta paleolitga oid kompleksida bir dona bo‘lsa-da, bifasning mavjudligi ularni ajratib turadi.

Shunday qilib, Qorong‘udarada tosh buyumlarning 19 ta tipi aniqlandi. Ulardan 6 tasi

2-jadval.


Qorong‘udara topilmajoyi tosh qurollari.

№	Tip	Soni
1	Retushlangan uchirindilar	2
2	Qirg‘ichlar:	10
a)	Uzunasiga	5
b)	Ko‘ndalang	5
3	Kesgichlar	2
4	Tosh pichoq	1
5	Iskanasimon qurol	1
6	Bifas	1
Jami:		**28**

3-jadval.

Qorong‘udara tosh buyumlarining tip-varaqasi.


№	Tip	Soni
1	Bir zarb maydonli nukleuslar	4
2	Ikki zarb maydonli nukleus	1
3	Ko‘p zarb maydonli haddan tashqari ishlov berilgan nukleus	1
4	Yonlama nukleuslar	4
5	Perpendikulyar nukleuslar	4
6	Gardishsimon nukleus	1
7	Konussimon nukleus	1
8	Ortogonal nukleuslar	2
9	Bir yuzadan ikki qarama-qarshi zarb maydondan chaqmoqlangan nukleuslar	2
10	Prizmasimon nukleus	1
11	Nukleussimon bo‘laklar	10
12	Uchirindilar	15
13	Plastinalar	2
14	Retushlangan uchirindilar	2
15	Qirg‘ichlar:	10
A	Uzunasiga	5
B	Ko‘ndalangiga	5
16	Kesgichlar	2
17	Tosh pichoq	1
18	Iskanasimon qurol	1
19	Bifas	1
Jami:		**76**



10-rasm. Qorong‘udara g‘orining tosh qurollari: 1–2–qirg‘ichlar; 3–tosh pichoq; 4-iskanasimon qurol; 5–8–kesgichlar

Рис. 10. Каменные орудия из пещеры Карангудара: 1–2–скребла; 3-каменный нож; 4-долотовидное орудие; 5–8–резцы

Fig. 10. Stone tools from Qorong‘udara cave: 1–2–scrapers; 3-stone knife; 4-chisel-like tool; 5–8–burins



11-rasm. Qorong‘udara g‘orining uchirindilari: 1–4–retushlangan uchirindilar; 5–6–uchirindi fragmentlari
Рис. 11. Отщепы из пещеры Карангудара: 1–4–ретушированные отщепы; 5–6–фрагменты отщепов
Fig. 11. Flakes from Qorong‘udara cave: 1–4–retouched flakes; 5–6–flake fragments

tosh qurollar va qolganlari birlamchi ishlov berilgan mahsulotlardir. Topilmalarning kam sonli bo‘lishiga qaramasdan ikkita kompleksga ajraladi. Ushbu tosh buyumlarning saqlanish darajasiga ko‘ra ajratib olish mumkin. O‘rta paleolitga oid tosh buyumlar qalinroq patina bilan qoplangan va katta qismi tabiiy ta’sirlar natijasida tashqi deflyatsiyaga uchragan.

Qorong‘udaraning so‘nggi paleolitga kiritilgan kompleksi artefaktlari esa o‘ta kuchli kremniylashgan ohaktoshlardan ishlanganligi va tarkibida so‘nggi paleolit davrini xarakterlaydigan tosh buyumlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Kuchli kremniylashgan ohaktosh xomashyosining Boysuntog‘da tanqisligi sababli, kompleksda undan tejab foydalanilgan va shuning uchun ham ulardan shakllantirilgan o‘zaklar haddan tashqari ishlov

berilganligi bilan ajralib turadi.

Ehtimol, Qorong‘udarada o‘rta va so‘nggi paleolit davrini o‘zida aks ettirgan g‘orlar mavjud bo‘lgan va keyinchalik tabiiy ta’sirlar natijasida ushbu ungurlar qulab, ulardagi arxeologik materiallar dara bo‘ylab sochilib, so‘ngra aralashib ketgan.

Qorong‘udaradan topilgan tosh industriyasining xarakterli xususiyati, ularning nafaqat ikkita: o‘rta va so‘nggi paleolit davrlariga oidligi, balki birinchi davrga oid tosh buyumlarning ikkinchi kompleks davrida ham intensiv qayta ishlov berilganligidadir.

Xulosa. Yodgorlikning tosh industriyasi Boysuntog‘ning paleolitga oid boshqa komplekslaridan tosh qurollarga bifasial ishlov berish texnologiyalarining keng tarqalganligidadir. Qorong‘udarada qo‘lga kiritilgan qalin yo‘nilg‘ilar yoki tosh plitkalarning qirralari dastavval, bifasial yo‘nishlar yordamida yupqalashtirilgan va so‘ngra retushlangan. Bu yerdan bir dona yuraksimon bifasning topilishi ham bejizga emas. Qorog‘udaraliklar o‘rta paleolit davridayoq toshlarga bifasial ishlov berishning texnologik malakasiga ega bo‘lganlar. Bu holat Qorong‘udara aholisining ushbu hududga migratsiya qilgan boshqa bir madaniy jamoalar birligi ekanligidan dalolat beradi.

Aytish mumkinki, Janubiy O‘zbekiston hududlaridan qadimgi tosh davriga oid yana bir necha yangi topilmajoylar aniqlandi. Dunyoga mashhur Teshiktosh g‘ori joylashgan Boysuntog‘ hududlari paleolit davri odamlari tomonidan anchayin zich o‘zlashtirilgan.

Qorong‘udara yodgorligining tosh industriyasi Boysuntog‘ hududida aniqlangan paleolit davriga oid boshqa arxeologik komplekslardan, avvalo, tosh qurollarga bifasial ishlov berish texnologiyasining keng qo‘llanganligi bilan ajralib turadi. Qorong‘udaradan topilgan qalin yo‘nilg‘ilar hamda tosh plitkalar qirralari dastlab bifasial yo‘nish usuli orqali yupqalashtirilgan, so‘ngra esa retush yo‘li bilan takomillashtirilgan. Yodgorlikdan yuraksimon bifas namunasining aniqlanishi mazkur texnologik an’ananing barqaror va maqsadli qo‘llanganligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qorong‘udara aholisi o‘rta paleolit davridayoq toshlarga bifasial ishlov berish bo‘yicha yetarli texnologik ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan. Bu holat mazkur madaniy guruhning hududga tashqaridan kirib kelgan yoki boshqa madaniy jamoalar bilan uzviy aloqada bo‘lganligini taxmin qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш: Палеолитический человек. Изд-во МГУ. М. 1949. С. 7-85.*
2. *Окладников А.П. Амир-Темир, новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) \\ КСИИМК. Вып. 6. М.-Л. 1940. С. 67-69.*
3. *Исламов У.И. Пещера Мачай. Изд-во Фан. Ташкент. 1975. 175 s.*
4. *Nishiaki Yoshihiro, Aripdjanov Otabek, Sayfullayev Baxtiyor, Rajabov Alisher, Nakata Hiroto, Arai Saiji, Akashi Chie. Prehistoric caves and rockshelters in the Machay valley, Surkhandarya, south Uzbekistan. Al-rāfidān vol. XXXIX. Hiroshima. 2018. Pp. 31-41.*

REFERENCES:

1. Okladnikov Alexey Pavlovich. (1949). Issledovanie musterskoy stoyanki i pogrebeniya neandertaltsa v grome Teshik-Tash grotto, Yujniy Uzbekistan (Srednya Azii). Teshik-Tash: Paleoliticheski Chelovek. MGU. Moskva. S. 7-85. (rus.)
2. Okladnikov Alexey Pavlovich. (1940). Amir-Temir, noviy pamyatnik kamennogo veka v gorax Baysun-Tau. (Uzbekistan) KSIIMK, Vip 6. M.-L. S. 67–69. (rus.)
3. Islamov Utkir. (1975). Peshera Machay. Fan. Tashkent. 175 s. (rus.)
4. Nishiaki Yoshihiro, Aripdjanov Otabek, Sayfullayev Baxtiyor, Rajabov Alisher, Nakata Hiroto, Arai Saiji, & Akashi Chie. (2018). Prehistoric caves and rockshelters in the Machy Valley, Surkhandarya, South Uzbekistan. Al-Rāfidān. Hiroshima. Pp. 31–41. (eng.)

TECHNO-TYPOLOGICAL CLASSIFICATION OF THE STONE INDUSTRY OF THE KARANGUDARA SITE IN THE BOYSUN VALLEY

© 2026. Rajabov Alisher
Samarkand Institute of Archaeology named after Y. Gulyamov

Key words: Karangudara, Teshiktash, Baysun mountains, Zavtalash gorge, cave, burin, knife, late paleolithic, neanderthal, nucleus, micro bifaces, flake, silicon.

This article examines the study of the newly discovered Karangudara site in the Boysun mountainous region. The discovery and introduction into scholarly discussion of stone artefacts found at this site enriches the prehistory of Southern Uzbekistan. A characteristic feature of the Karangudara industry the presence of materials attributable to both the middle and upper paleolithic, but also the intensive reuse of artefacts from the early complex in the later period. The stone industry of the site differs from other contemporary assemblages with the widespread use of bifacial reduction techniques. The edges of the thick flakes obtained in Karangudara were first thinned using bifacial flaking and then retouched. It is no coincidence that a heart-shaped biface was found here. The Karangudara people mastered the skills of bifacial technology as early as the middle palaeolithic era. This suggests the existence of a separate cultural tradition in the region, distinct from other neighbouring contemporary groups. In addition, a number of other sites have been identified in southern Uzbekistan that indicate a denser population in the Boysun mountains during the palaeolithic era.